





19. Алимов С., Собитова Т. Халқ оғзаки ижодидан укув қўлланма. 1-қисм. – Тошкент: Университет нашриёти. 2007.
20. Жураев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – Т.: 2006. Б. 183.
21. Жураев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан. 2001. – 136 б.
22. Мирзаев Т. Энос и сказатель. – Ташкент: Фан. – 410 с.
23. Турдимов Ш. “Гуругли” дostonларининг генезиси ва талрижий босқичлари. “Фан”. – Т.: 2011. – Б. 240.

Internet saytlari

1. www.lectures.ndpi.uz
2. www.folklore.ru
3. www.folksestru.ru
4. www.folklore.tomsk.ru
5. www.ruthenia.ru

6. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

<p>O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022-yil “25” 08” dagi “1”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
<p>“Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrası mudiri, f.f.d., professor S.Ashirboyev  (imzo)</p>
<p>Tuzuvchi: “Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrası professori, filologiya fanlari doktori Sh.Turdimov  (imzo)</p>
<p>Taqrizchilar: Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, f.f. doktori, professor J.Eshonqulov  (imzo)</p>
<p>“Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi A.Tilavov  (imzo)</p>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2022-yil “25” avgust

Xalq inikasii
fanining

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar

Ta'lim yo'nalishi: 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik

Fan/modul kodi 302 XI. 1 5		Fan/modul turi tanlov		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023				
Semestr	Har bir semestrda fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
II	Xalq lirikasi	5	4	60	20	20	20	0	90	150
	Jami:	5	4	60	20	20	20	0	90	150

L. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsadi – talabalarga o'zbek xalq lirikasi, janrlar tarkibi va tasnifi, marosim lirikasi, shomon qo'shiqlari janrlari, xalq qo'shiqlarida ramzlar, xalq qo'shiqlarining to'planishi, tasnif qilinishi va nashrlari, bu borada olib borilgan tadqiqotlar mazmuni haqida ma'lumot berishdir.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKILLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- o'zbek xalq lirikasi, janrlar tarkibi va tasnifi, marosim lirikasi, shomon qo'shiqlari janrlari, xalq qo'shiqlarida ramzlar kabi *bilimga ega bo'lish*;
- xalq qo'shiqlarining to'planishi, tasnif qilinishi va nashrlari, bu borada olib borilgan tadqiqotlar mazmuni, nashr qilingan xalq qo'shiqlari to'plamlaridagi lirik turga oid janrlar namunalari tahlil qilish, xalq orasidan xalq qo'shiqlari namunalari yig'ish va tasniflash *ko'nikmasini* hosil qilish;
- talabalar o'zbek folklorshunoslik nazariyasida xalq qo'shiqlariga doir nazariy qarashlarni jahon folklorshunosligi merosida munosib o'rni anglashi va baholash *malakalariga ega bo'lishi kerak*

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar, shuningdek, mavzuga mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida olib boriladi.

4. TALABALAR KREDITLARINI OLISH TARTIBI

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim

muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida test yoki yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma ish yoki test shaklida o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 marta gacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muvayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;** talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

2-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

No	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	O'zbek xalq lirikasi. Janrlar tarkibi va tasnif.	O'zbek xalq lirikasi. Janrlar tarkibi haqida ma'lumot beriladi	2
2.	Xalq lirikasi va mif.	Xalq lirikasi va mif munosabatlari ko'rsatiladi	2
3.	Marosim lirikasi janrlari.	Marosim lirikasi janrlari haqida ma'lumot beriladi	2
4.	Shomon qo'shiqlari janrlari.	Shomon qo'shiqlari tahlillar asosida yoritiladi	2
5.	Mavsumiy marosim qo'shiqlari.	Mavsumiy marosim qo'shiqlari tahlillar asosida yoritiladi	2
6.	Oilaviy marosim lirikasi janrlar. Yor-yor, kelin salom, marsiya.	Oilaviy marosim lirikasi janrlari badiiy xususiyatlari yoritiladi	2
7.	O'lan va lapar.	O'lan va lapar janrlari tarixi, badiiy xususiyatlari ko'rsatiladi	2
8.	Mehnat qo'shiqlari.	Mehnat qo'shiqlari haqida ma'lumot beriladi	2
9.	Ashulla – lirik qo'shiqlar.	Ashulla – lirik qo'shiq sifatidagi xususiyatlari ochib beriladi	2

10.	Xalq qo'shiqlarida ramz	Xalq qo'shiqlarida ramzlar tahlillar orqali ko'rsatiladi	2
	Jami		20

2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	"Gulyor" qo'shiq to'plami tahlili.	To'plamdagi qo'shiq namunalari tahlil qilinadi.	2
2.	"Oq olma, qizil olma" to'plami tahlili.	To'plamdagi qo'shiq namunalari tahlil qilinadi.	2
3.	"Xorazm qo'shiqlari" to'plami tahlili.	To'plamdagi qo'shiq namunalari tahlil qilinadi.	2
4.	"Kelinoy qo'shiqlari" to'plami tahlili.	To'plamdagi qo'shiq namunalari tahlil qilinadi.	2
5.	"Shoda-shoda marvarid", "O'zbek xalq qo'shiqlari" to'plamlarining tahlili.	To'plamlardagi qo'shiq namunalari tahlil qilinadi.	2
6.	O'lan va lapar janrining qiyosiy tahlili.	Ikki janrning o'xshash va farqli jihatlari tahlil etiladi.	2
7.	Asqar Musaqluv ilmiy merosida xalq qo'shiqlari tadqiqi.	Olimning "O'zbek xalq lirikasi" tadqiqotida ko'tarilgan masalalar tahlilga tortiladi.	2
8.	Mehnat qo'shiqlarining o'rganilishi.	Mehnat qo'shiqlari borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil etiladi.	2
9.	Marosim qo'shiqlarining o'rganilishi.	Marosim qo'shiqlari borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil etiladi.	2
10.	Ashulla (lirik qo'shiqlar) tahlillari va tadqiqi.	Mavzuga Sh. Turdimovning "Xalq qo'shiqlarida ramz" tadqiqoti asosida oydinlik kiritiladi.	2
	Jami		20

3. Seminar mashg'ulotlari

№	Seminar mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	Miflarning xalq lirikasidagi o'rnini.	Mif va xalq lirikasi aloqasi haqida ma'lumot beriladi.	2
2.	Shomon termalari.	Shomirza Turdimov tadqiqotlari asosida mavzu yoritiladi.	2
3.	Muzayyana Alaviya o'zbek xalq qo'shiqlari tadqiqotchisi.	Olimaning qo'shiqlarni yig'ish, tasniflash va tadqiq etish borasidagi faoliyati o'rganiladi.	2
4.	Mavsumiy marosim lirikasi namunalari tahlili.	Talabalarda xalq lirikasi namunalari tahlil etish malakasi shakllantiriladi.	2
5.	Mehnat qo'shiqlari.	"DLT" dagi mehnat qo'shiqlari va keyingi davrdagi mehnat qo'shiqlari qiyosiy o'rganiladi.	2
6.	Yor-yorlarda qofiya va she'r tuzilishi.	Yor-yorlarning badiiy xususiyatlari tahlil etiladi.	2
7.	Ashullalarda an'anaviy qaytariqlar.	Qaytariqlarning ashulalar badiiyligini ta'minlovchi komponent ekani tushuntiriladi.	2

8.	Ashullarda parallelizm.	Parallelizm ashullardagi muhim komponent ekaniga e'tibor qaratiladi.	2
9.	Ashullalarda o'zak ramziy obrazlar.	O'zak ramziy obrazlarning xalq lirikasidagi o'rniga baho beriladi.	2
10.	Ashullalarda vaziyat ramzlarning o'rni.	Vaziyat ramziy obrazlarning xalq lirikasidagi o'rniga baho beriladi.	2
Jami			20 soat

4. Mustaqil ta'lim:

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	Xodi Zarif o'zbek folklorshunosligining asoschisi	Ilmiy asar tahlili	4
2.	To'ra Mirzaev – folklorshunos.	Ilmiy asar tahlili	2
3.	Bugungi o'zbek folklorshunosligining rivoji.	Ilmiy asar tahlili	4
4.	Xalq lirikasini o'rganish tajribalari va yangi nazariy qarashlar	Ilmiy asar tahlili	2
5.	O'zbek mifologiyasi xalq qadiyatlarining tarkibiy qismi sifatida	Ilmiy asar tahlili	4
6.	“Dada Qo'rqut kitobi” va “Alpomish” dostonida mifologik tizimning qiyosiy tahlili.	Badiiy matn tahlili	2
7.	Xalq qo'shiqlarida mifik timsollar.	Badiiy matn tahlili	4
8.	Ertaklarda mifik unsurlar.	Badiiy matn tahlili	2
9.	Alisher Navoiy ijodi va mif.	Badiiy matn tahlili	4
10.	O'zbek folklorshunosligining tadrijiy taraqqiyotida mifologik tasavvurlar tadqiqi.		2
11.	Xalq dostonlari va mifologiya	Badiiy matn tahlili	4
12.	Mustaqillik davri folklor asarlari nashrlari tajribasi.		2
13.	“Alpomish” dostonidagi avlod shajarasi dostonida ikki bora to'liq qaytariladi. Birinchisi doston boshlanmasida baxshi tomonidan aytilsa, ikkinchisi Alpomish Qalmoqdagi chohdan chiqib, yurtiga qaytayotganda ilk bor uchragan karvonlaragi bu shajarani to'liq aytadi. Bundan maqsad nima? Bu sanoq qanday mazmunga ega? Epos mazmuni kesimida talqin eting.	Badiiy matn tahlili	2
14.	“Alpomish”da kuylangan: «Davlat qo'nsa bir chivinning boshiga, Semurg' qushlar salom berar qoshida» shohbaytning doston voqeligiga qanday aloqasi bor?	Badiiy matn tahlili	4
15.	“Alpomish” dostonida Dobonbiyning 14 botmon brinchdan bo'lgan yoyi uzoq vaqt harakatsiz yotdi. Alpomish etti yoshida bu yoyni otib, alp ataldi. Oradan vaqt o'tib yoy yana chang bosib qoldi. Yodgor uni bazo'r sudrab tortdi. Bu yoyning o'g'uz qissalaridagi Uch o'q va Bo'z o'q urug'lari bilan bog'liqligini va ma'no qirralarini aniqlashga harakat qiling.	Badiiy matn tahlili	2

16.	Marosim qo'shiqlarining o'rganilishi.	Badiiy matn tahlili	4
17.	Qultoy aytadi: "Alpomishning chap elkasida mening qo'limning izi bor". Qultoy kim? Uning dostonidagi o'rni qayerda? Bodom bikach Barchin bilan o'lan aytishadi. Nega Bodom bikach bilan Barchin? Bu aytishuvning poetik yuki qanday deb o'ylaysiz?	Badiiy matn tahlili	2
18.	Poygada qatnashgan otlar hisobini chiqaring. chavandozlarning etnik tarkibini aniqlang va poygani shu xil tahlil qiling. Bu hosilani eposning umumiy g'oyasiga bog'lab talqin eting.	Badiiy matn tahlili	4
19.	Qalmoq alplari Barchinga sovchi bo'lib kelishadi. Barchinning yoshini hisob-kitob qilib, o'tovini alohida, uning o'zi javob beradi degan qarorini aytishadi. Bu talqinning marosimiy asosi va poetik ma'no qamrovini aniqlang.	Badiiy matn tahlili	2
20.	Alpomish" dostonida Yortiboy obrazining poetik yuki qanday? Uning: <i>Maslahat hermaymiz Boysari boyga.</i> <i>Osilmaylik Boybo'ring doriga.</i> Va Kashalda aytgan: <i>Bolalarni tog'a-jiyan qilamiz</i> <i>Bu ellarda erkin bo'lib yuramiz.</i> Ushbu javoblarning talqini qanday?	Badiiy matn tahlili	4
21.	<i>Daryoning ul yuzida uylaringiz</i> <i>Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz".</i> Turkum qo'shiqlari semantikasini ushbu kesimda olib, tadqiq eting.	Badiiy matn tahlili	2
22.	"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni avvalida Go'ro'g'lining otasi Ravshanni Shohdorxon askarlari yov bo'lib kelganda Hamza asir qilib, yashirincha olib ketadi. Savol: nega Taka-Yovmit ahli bu holatga bee'tibor qoldi? Sabab nima? Bu epizodning epos g'oyasiga aloqasi qanday?	Badiiy matn tahlili	4
23.	Ravshan sinchi va To'laboy sinchi munosabati va raqobatining semantik ko'lamini epos voqeeligi ma'no qatlamlari kesimida talqin eting.	Badiiy matn tahlili	4
24.	Go'ro'g'lining tug'ilish vaqti, uning qabrda kechgan davri, biya emib ulg'ayishi va Rustam qo'liga kelib, o'z yurtiga qaytgungacha bo'lgan vaqt talqinini epik qahramon hamda etnos kesimida tahlil qiling.	Badiiy matn tahlili	2
25.	Go'ro'g'li turkumida ettita epik ot tarjimai holi, epik talqinlari aks etgan. Bu otlar qanday otlar va ularni epik ot obrazida talqin eting.	Badiiy matn tahlili	4
26.	Alp – eposning qahramoni. Etnosda uning quvvatini namoyon etuvchi sohibqironlar va ulug' quvvatli sarkardayu, podsholarning umumlashma badiiy obrazi bu alp hisoblanadi. "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonida alplik	Badiiy matn tahlili	2

	tizimi asar yadrosini tutib turuvchi mohiyatlardan biridir. Alplik tizimi tasavvurlarini ushbu dostonlar misolida qayta tekshirib chiqing.		
27.	“Dunyoda yo‘q hunar”, “Uch ko‘r va bir yigit”, “Qo‘ng‘iz bekach” ertaklari ifodalayotgan ramziy-timsoliy vositalari bizga nimalardan xabar beradi?	Badiiy matn tahlili	4
28.	Afsona, naql va latifalarning voqelikni aks ettirishdagi farqi va assotsiativ ma‘nolarini yoritib bering.	Badiiy matn tahlili	2
29.	Maqol, topishmoq va chaldirmoq janrlarini qiyosan tahlil eting. Maqollarning o‘z va ko‘chma ma‘nolariga diqqat qarating. Topishmoq va chaldirmoqlarning uyg‘un va farqli xossalriga to‘xtalng.	Badiiy matn tahlili	4
30.	Xalq kitoblari poetikasi		2
Jami:			90

5. O‘QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Mirzayev T., Jo‘rayev M., Turdimov Sh., Eshonqulov J., Ilfovov A. O‘zbek folklori. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020. –240 b
2. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –Toshkent: “Fan”, 2009.
3. Jo‘rayev M. Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDMI, 2008.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: “Musiqa” nashriyoti, 2010.
5. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010
6. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. –Toshkent: “Aloqachi”, 2008.

Qo‘shimcha adabiyotlar

7. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017-yil, 8-fevral).
9. Mirziyoyev Sh. “Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” qaror // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2018-yil 2-noyabr.
10. XX asr uzbek folklorshunosligi. Антология. –Ташкент: Миллий энциклопедия нашриёти, 2017.
11. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. –Toshkent: “Fan”, 2008.
12. Eshonqul J. Mif va badiiy tafakkur. –Toshkent: Fan, 2019. –310 b.
13. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. -Toshkent, Fan, 2006.
14. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. -Toshkent: Fan, 2010.
15. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015. 2016.
16. Turdimov Sh. O‘zbek xalq qo‘shiqchlari. – Toshkent: Fan, 2020.
17. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
18. Turdimov Sh. Hikmatlar xazinasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.